

Onaning ko‘z yoshi

Yomg‘ir maydalab yog‘a boshladi. Bog‘dagi sarg‘aygan yaproqlar uzra zumrad tomchilar yog‘dulandi.

Bir-biriga chirmashgan tok navdalari va qalin barglar chodiridagi yirik-yirik uzum boshlarini suv yuvib, nozik po‘stlari darz ketdi. Yomg‘ir o‘t ustida yotgan sopol tuvakchani ham tinmay chertadi. Tuvakcha ostida esa jajjigina qaldirg‘och panoh topgan. U sovuqdan junjukib titrar, yolg‘izlikdan esa battar ezilardi. Boshqa hamma qushlar uchib ketishdi. Ular bilan ikki singlisi, opasi ham issiq o‘lkalarga uchishdi. Bechora tashlandiq qushchani bu yomg‘irli tunda kim qanotlari ostiga olib isitadi endi? U ucholmasligi tufayli shu sopol tuvakcha tagida tirishib o‘tiratdi. Yozda uning onasi uya qurgan uyga o‘t ketdi. Ona qaldirg‘och bolasini yomg‘in ichidan olib chiqishga ulgurmasidan bir parcha cho‘g‘ uyaga tushib, bechora polaponing yumshoq par qoplangan o‘ng qanotini kuydirdi. Og‘riqdan jajjigina qaldorg‘ochning ko‘z oldi qorong‘ulashib ketdi.

U hushiga kelib o‘zini yangi uyada ko‘rdi, mehribon onasi tepasida parvona edi. Polapon qanotlarini yozmoqchi bo‘ldi, lekin yozolmadi, o‘ng qanoti jonsiz edi.

Yoz o‘tdi. Uzum shingillari qora tortdi. Bog‘dagi gullar ham gullab bo‘lishdi. Qandirg‘ochlar gala-gala bo‘lib telegraf simlariga tizila boshladilar. Ular uzoq safarga hozirlik ko‘rishrdi. Qaldirg‘ochlar qo‘ngan telegraf simlari cho‘tning donalarini esga soladi.

Bir kuni ertalab ona qaldirg‘och bolasiga dedi:

-Bolajonim, bugun biz janub tomon uchamiz. Sening qolishinga to‘g‘ri keladi, ucholmaysan. Hu, anavi tuvakchani ko‘ryapsanmi. Men uning tagiga yumshoq par to‘shab qo‘ydim. Sen o‘sha yerda yotasan. Och qolsang tashqariga chiqib biror narsani rizq qilarsan. Bog‘da har hil mevalar to‘lib yotibdi. Biz bahorda yana qaytib kelamiz.

-G‘amxo‘rligingiz uchun rahmat, onajon, - dedi polapon va ko‘z yoshlarini yashirish uchun boshini onasining qanotlari ostiga oldi.

Qushlar uchib ketishdi. Bir-biridan og‘ir, bir-biridan qayg‘uli kunlar o‘taverdi. Yomg‘ir ketidan yomg‘ir yog‘di. Ivib og‘irlashgan gul ham tuvakcha ustiga egildi. Uning eng pastki bargida esa shaffofgina bir tomchi tushib ketay- tushib ketay deb titrab turibdi.

-Ux, charchadim! – ohista xo‘rsindi tomchi.

-Voy, sen qayoqdan kelding? – Hamroh topilganidan quvonib ketgan qaldirg‘och qiziqib so‘radi.

-Eh-he, men uzundan-uzoq yo‘l bosdim, - tomchi yaproq uzra u tomon sirg‘alarkan, chuqur uh tordi. – Bu yerga buyuk okeandan uchib keldim. Men o‘sha

yerda paydo bo'lganman. Faqat men oddiy yomg'ir tomchisi emasman – ko'z yoshiman...

- Ko'z yoshi? Qanaqa ko'z yoshi?- sergaklangan qaldirg'och dumaloq ko'zchalarini tomchiga tikib shoshib so'radi.

-Mening tarixim juda qisqa. Bundan to'qqiz kun kattakon okean kemasining machtasiga charchab-horigan bir qaldirg'och qo'ndi.

Uning ko'zlari jiqqa yosh edi. Men u bechoraning o'ng ko'zida edim.

Okean na'ra tortib, kuchli shamol turdi. Qaldirg'och shamilfa zaif ovoz bilan shunday dedi: “Shamoljon, sen yer ustida uchib yurasan, agar sen Bolgariya ustidan otsang, mening bog'da qolgan bechora bolamning holidan xabar ol va ubga tayinla, bog'da kezib yuradigan qora mushukdan o'zini ehtiyot qilsin. Uchib ketayotganimda ogohlantirib qo'yishini unutibman. Unga tag'in shuni aytki, mening yurak-bag'rim kuyib, kul bo'ldi... “Sen bolangni qayerda qoldirgansan?” – deb so'radi undan shamol.

“Bog'da , gullab yotgan astralar orasidagi tuvak tagida”.

Ona qaldirg'och shu so'zlarni aytganda men uning ko'zidan oqib tushdim, shamol meni o'z qanotiga olib uchib ketdi. Shu zayilda to'qqiz kun uchdim. Mana endi shu gulning ustiga tushdim. Eh, judayam charchadim! Yerga oqib tushsam-u, uxlasam deyman...

Kichkina qaldirg'ochning yuragi shodlikdan urib ketdi.

-Onajon!... U tez o'rnidan turib og'zini ochdi, shu payt onaning ko'z yoshi yaproqdan mildirabgina sirg'aldi-da uning og'ziga tushdi.

-Rahmat senga, onajon! – u mamnun pichirlaganicha yumshoq par to'shakka cho'zildi va tani onaning ko'z yoshi bilan isib, go'yo yana onasining qanotlari ostida yotganday uyquga ketdi.